O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 6 - fevral 53-10-0-Q/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyatida joylashgan maxsus iqtisodiy zonalar va unga tenglashtirilgan texnopark hamda klaster xududidagi elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkalarining boshlang‘ich narxini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2018-yil 21-dekabrdagi 5600-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-dekabrdagi 01-06/1-1682-sonli bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida, hamda maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalariga investorlar tomonidan bir qator investitsiya buyurtmanomalari kelib tushganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2018-yil 21-dekabrdagi 5600-sonli farmoni bilan:

maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalarining qarorlari bilan ma’qullangan investitsiya buyurtmanomalarida belgilangan hajmlardagi yer uchastkalari maxsus iqtisodiy zonalarning direksiyalari tomonidan elektron onlayn-auksionga chiqarilishi, bunda yer uchastkasini auksionga chiqarishni boshqa tashkilotlar bilan kelishish, shu jumladan “YERELEKTRON” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish talab etilmasligi;

elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang‘ich narxi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent

shahar hokimliklari qarori bilan belgilanishi malumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyatida joylashgan maxsus iqtisodiy zonalar va unga tenglashtirilgan texnopark (Shu jumladan “Ohangaron Tech Industrial” texnoparki) va klasterlar hududlaridagi elektron onlayn auksionga chiqariladigan yer uchastkalarining boshlang‘ich narxi 0,01 gektarga bazaviy hisoblash miqdorining 2 (ikki) baravari etib belgilansin (qonun hujjatlarida boshqa tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa).

3. Toshkent viloyatida joylashgan maxsus iqtisodiy zonalar va unga tenglashtirilgan texnopark hamda klasterlar direksiyalari yer uchastkasini elektron onlayn-auksionga chiqarishdagi o‘rnatiladigan boshlang‘ich narx investorlar tomonidan investitsiya buyurtmanomasi bilan berilgan takliflardan kelib chiqib oshirishlari mumkin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari N.Sharipov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi **Z.Mirzayev**